



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
chaqiruvga qadar boshlang'ich  
tayyorgarlik fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ning  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili 10-sinf uchun  
IV chorak*

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

2025-2026-o‘quv yili 10-sinf CHQBT fani uchun  
IV chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Qo‘l granatalarini uloqtirish tartibi	1		
2.	Qo‘l granatalarini uloqtirish	1		
3.	Taktik tibbiy tayyorgarlik asoslari	1		
4.	Jang maydonidagi tibbiy yordam	1		
5.	Yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish	1		
6.	Taktik tibbiy tayyorgarlik meyyorlarini bajarish	1		
7.	Shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam	1		
8.	<b>BSB-4 [50 ball]</b>	1		
9.	Tashqi qon ketishi va nafas yetishmovchiligida birinchi tibbiy yordam.	1		
10.	Suyak sinishlarda birinchi tibbiy yordam.	1		
11.	Oftob va sovuq urganda, cho‘kkanda birinchi tibbiy yordam	1		
12.	Erkin mashqlar kompleksi	1		
13.	Erkin mashqlar kompleksi	1		
14.	To‘siqlar yo‘lagi elementlari	1		
15.	<b>CHSB-4 [40 ball]</b>	1		
16.	To‘siqlar yo‘lagi elementlarini yengib o‘tish tartibi	1		
17.	Qo‘l granatalarini uloqtirish tartibi	1		
18.	Qo‘l granatalarini uloqtirish	1		
19.	Taktik tibbiy tayyorgarlik asoslari	1		
20.	Jang maydonidagi tibbiy yordam	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Qo'l granatalarini uloqtirish tartibi**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:**

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish; harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish; Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

**Tarbiyaviy:**

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;

favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;

yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:**

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish; harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

**II. FK – fanga oid kompetensiyalar**

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

### III. Yangi mavzu bayoni:

#### Granatalarni qo'llashda xavfsizlik qoidalari

Granatalar yog'och quti (yashik)larda saqlanadi. Granata dastalari va zapallari alohida qadoqlarga solinib, qutilarga joylashtiriladi.

#### Jangovar granatalarni uloqtirish mobaynida quyidagi xavfsizlik qoidalariga rioya etish lozim:

- shaxsiy tarkib po'lat kaska (shlem)larda bo'lishi kerak;
- granatalarni tayyorlashdan oldin ularning qobig'i va zapallari ko'rikdan o'tkaziladi.
- Nosozliklar aniqlanganda komandirga bildiruv beriladi;
- granatalar okopdan yoki pana joylardan ofitser boshchiligida uloqtiriladi;
- agar granata uloqtirilmasa (saqlovchi tortqi sug'urilmagan bo'lsa), u (zapalni burab chiqarish) faqat komanda bo'yicha, komandirning bevosita kuzatuv ostida zararsizlantiriladi;
- portlamagan granatalarning hisobini yuritish, ular tushgan joylarni qizil bayroqchalar bilan belgilash zarur, mashg'ulotlar tugagach esa portlamay qolgan granatalar tushgan joyida portlatiladi. Ushbu granatalar portlatilishini qism komandiri tashkillashtiradi; qo'l granatalarni uloqtirish hududi 300 m radiusda o'raladi;
- granatalarni uloqtirish bilan band bo'lmagan shaxsiy tarkib o't ochish marrasidan xavfsiz masofalarga (150 m dan kam bo'lmagan) olib o'tiladi;
- granatalarni uloqtirish uchun dastlabki marra oq bayroqchalar bilan, o't ochish marrasi esa qizil bayroqchalar bilan belgilanadi;
- granata va zapallarni tarqatish joyi dastlabki marradan 25 metr uzoqlikda jihozlanadi.



#### Qo'l granatalarini jangovar holatga keltirish

Granatani uloqtirishdan oldin uloqtirishga hozirlik ko'rish (granatani jangovar holatga keltirish va uloqtirish holatini egallash) kerak, so'ng uni uloqtirish mumkin. Granatani o'qlash uchun uni avval sumkadan olish, korpus trubkasidan tiqinni chiqarish va zapalni trubkaga burab kiritish lozim (1-rasm).



1-rasm. Granataga UZRGMni joylashtirish

UZRGM granataga **“Granatalar hozirlansin!”** komandasiga ko'ra, jangda esa mustaqil tarzda joylashtiriladi (1-rasm).

Granata **“Granata bilan o't och!”** yoki **“Transheyaga qarata, granatalar bilan o't och!”** komandasiga ko'ra, jangda esa mustaqil tarzda uloqtiriladi.

Granatani uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

– granata tutqichi korpusiga zich holatda siqib ushlanadi;

- tutqichni mahkam siqib turgan holda ikkinchi qo‘l bilan saqlovchi uchlari to‘g‘rilanadi va uni barmoq yordamida halqa bilan tortib, zapal sug‘urib olinadi (2-rasm);
- granata nishonga qarata uloqtiriladi;
- mudofaada qo‘llaniladigan granata uloqtirilganda pana ortiga o‘tiladi.



2-rasm . Zapalni burab o‘rnatish va saqlovchi tortqini sug‘urish

### Yakka tartibda ishlash uchun topshiriq

Granatalarni qo‘llashda xavfsizlik qoidalari

....

....

....

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Qo‘l granatalaridan qachon foydalaniladi?
2. Granatalarni uloqtirishda nima uchun xavfsizlik choralariga amal qilish talab etiladi?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** Qo‘l granatalarini uloqtirishga tayyorlashni mashq qiling.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## **Mavzu: Qo'l granatalarini uloqtirish**

### **Darsning maqsadi:**

#### **Ta'limiy:**

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish; harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish; Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

#### **Tarbiyaviy:**

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash; favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish; yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

#### **Rivojlantiruvchi:**

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish; harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

### **II. FK – fanga oid kompetensiyalar**

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

### **Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

### III. Yangi mavzu bayoni:

#### Qo'l granatasini tik turgan holda va tizzalab turib uloqtirish

**Granatani bir joyda tik turgan holatda uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:**

nishonga yuzlanib turiladi, granatani o'ng qo'lga (chapaqay – chap qo'lga), qurolni esa chap (o'ng) qo'lga olib, saqlovchi halqa sug'uriladi;

o'ng (chap) oyoq bilan, ortga bir qadam tashlanib, tizzani bukiladi;

tanani o'ngga (chapga) biroz burib, granatani otish holati egallanadi;

o'ng (chap) oyoqni tez to'g'rilab turib, ko'krak nishon tomonga buriladi va granata yelka uzra olib o'tib, uloqtiriladi. Granata qo'yib yuborilayotganda tirsak qo'shimcha siltanadi.

Uloqtirish mobaynida tana og'irligi chap (o'ng) oyoqqa o'tkazilib, qurol keskin ortga tortiladi (1-rasm).



1-rasm. Granatani bir joyda tik turgan holatda uloqtirish usuli:

a, b, d, e – harakatlarni ketma-ketligi

Активат  
Чтобы акт  
Параметр



#### Granatani tizzada turib uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:

tizzaga turiladi;

granatani o'ng (chap) qo'lga, qurolni esa chap (o'ng) qo'lga olib, saqlovchi tortqi sug'urib olinadi;

tanani ortga tashlab, o'ngga (chapga) buriladi va quloch ochiladi;

biroz ko'tarilib, granatani yelka uzra oshirib, harakat so'ngida chap (o'ng) oyoq tomonga keskin bukilib, uloqtiriladi.




2-rasm. Granatani tizzada turgan holatda uloqtirish usuli:

a, b, d – harakatlarni ketma-ketligi.



**Granatani yotgan holatda uloqtirish uchun quyidagi amallar bajariladi:**

yotgan holda o‘t ochish holati qabul qilinadi;  
 qurol yerga qo‘yilib, granata o‘ng (chap) qo‘lga olinadi;  
 chap (o‘ng) qo‘l bilan saqllovchi halqa sug‘urib olinib, yerga qo‘llar bilan tiraladi va yerdan itarilib, tizzalarga turiladi;  
 o‘ng (chap) oyoqni biroz ortga tashlab, chap (o‘ng) tizzaga (joyidan qo‘zg‘atmagan holda) turiladi va shu paytning o‘zida quloch yoyiladi;  
 o‘ng (chap) oyoqni to‘g‘rilab, ko‘krakni nishon tomon burib, oldinga yiqila borib, granata uloqtiriladi;  
 qurolni olib, o‘t ochishga hozirlik ko‘riladi (3-rasm).



**3-rasm. Granatani yotgan holatda uloqtirish usuli:**  
 a, b, d, e – harakatlar ketma-ketligi

**Granatani harakat mobaynida uloqtirish uchun quyidagi harakatlar bajariladi:**

granata yarim bukilgan o‘ng (chap) qo‘lda, qurol esa chap (o‘ng) qo‘lda tutilib, saqllovchi halqa sug‘urib olinadi;  
 chap (o‘ng) oyoq oldinga tashlanganda qo‘l granata bilan birgalikda oldinga chiqariladi; navbatdagi qadam tashlanganda qo‘l yoy bo‘yicha pastga, ortga harakat qilishda davom etadi va ayni paytda tana o‘ngga (chapga) buriladi;  
 uchinchi qadamda chap (o‘ng) oyoq uchini nishon yo‘nalishi tomon qo‘yib, o‘ng oyoqning tizzasi bukiladi va tana burilishi, quloch ochilishi to‘xtatiladi;  
 harakat tezligidan foydalanib, uloqtirish jarayoniga oyoq, tana va qo‘l kuchini mujassamlashtirgan holda granata yelka oshirib uloqtiriladi (4-rasm).

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

Jangda qanday qurollar dushman ustidan ustunlikni ta‘minlaydi?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

**49 listdan iborat CHQBT fanidan 10-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**